

**QIZLAR VA AYOLLAR O‘RTASIDA OLIB BORILAYOTGAN  
REPRODUKTIV SALOMATLIK TADBIRLARI TAHLILI.**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali  
Mikrobiologiya, jamoat salomatligi,  
gigiyena va menejment kafedrasi assistenti  
Abdumuratova Zarina Shokir qizi  
([zarinaabdumuratova0104@gmail.com](mailto:zarinaabdumuratova0104@gmail.com))  
2-Davolash fakulteti 407 guruh talabasi  
Abdumurodova Xurshida Abdusalom qizi*

**Muammoning dolzarbligi:** Reproductive salomatlik insoniyat taraqqiyotida, umumiy salomatlikning bir qismi bo‘lib, markaziy zvenoni egallab kelmoqda. U erkaklar va ayollarga, o‘smirlarga ham taaluqli bo‘lib, ularning butun oilaviy hayotini, uni qanday tashkil etishni, ushbu masalaga oid bo‘lgan barcha axborot, ma’lumotlardan xabardor bo‘lishni, homiladorlik va undan saqlanishning xavfsiz usullari, kontraseptiv vositalar va ulardan foydalanish, ular bilan bog‘liq masalalarda sog‘liqni saqlash tizimi xizmatidan to‘laqonli va erkin foydalanish huquqini, xar bir insonning o‘z reproduktiv huquqi mavjudligini, har kim o‘z oilasida tug‘ilajak farzandining, sog‘lom bo‘lishini taminlashi shart va zarurligini anglatadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Aholining reproduktiv salomatligini saqlashda patronaj hamshirasining kasbiy faoliyatini o‘rganish. Fertil yoshdagi ayollarni reproduktiv salomatligini saqlash ularning reproduktiv salomatlik madaniyatini oshirish. Reproductive tizim bilan bog‘liq kasalliklar va ularning oldini olish profilaktikasi haqida targ‘ibot ishlarini olib borish, kontrasepsiya tushunchalarini aholiga targ‘ib qilish.

**Kalit so‘zlar:** reproduktiv salomatlik, fertil yosh, reproduktiv huquq.

**Tadqiqot obyekti:** fertil yoshdagi 15 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan 200 nafar qizlar, ayollar hamda 40 nafar patronaj hamshiralar o‘rtasida olib borildi.

**Tadqiqot predmeti:** Reproductive yoshdagi ayollar salomatligini saqlashda patronaj hamshirasining kasbiy faoliyatini o‘rganish va tahlil qilishning amaliy uslubiy asoslari o‘rganish.

**Tadqiqot usuli va materiallari:** Ma’lumotlar suhbat va anketa so‘rovnoma asosida to‘plandi. Adabiyotlar tahlili o‘tkazildi, tadqiqot davomida statistik usullardan foydalanildi (asosiy statistik ko‘rsatkichlar). Natijalar reproduktiv salomatlikni saqlashga doir JSST va UNICEF statistika ma’lumotlari bilan taqqoslandi.

**Kirish.** Reproductive salomatlik masalasi birinchi bor 1994-yilda Qoxirada bo‘lib o‘tgan Aholishunoslik va Taraqqiyot Xalqaro Konferensiyasida ko‘tarilgan edi. Ushbu konferensiyada reproduktiv salomatlik iborasiga to‘laqonli tushuncha

berildi. Reprodukiv salomatlik- reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog‘liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo‘qligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Reprodukiv huquq barcha er-xotin juftliklar va alohida shaxslarning bolalar soni va ular orasidagi oraliq, ularning tug‘ulish vaqti haqida erkin hamda to‘liq ma’suliyat xisi bilan qaror qabul qilishi va buning uchun shart bo‘lgan ma’lumot va vositalarga ega bo‘lish borasidagi asosiy huquqlarini bilishini anglatadi.

Millatning sog‘lom genofondini shakllantirish, genofondning rang-barangligini taminlashga erishishda;

- Ota-onalarning shu jumladan bo‘lajak ota-onalar, o‘smir yoshlarning reproduktiv imkoniyatlarini baholash;
- Ota-onalarning umumiy salomatlik holatini taminlash;
- Homiladorlikning kechishini kuzatish va uning meyoriy tarzda bo‘lishini taminlash;
- Tug‘ruqda yordamlashish xizmati holatini baholash va uni talab darajasiga ko‘tarish;
- Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni salbiy oqibatlarini oilalarga to‘g‘ri tushuntirish;[29]

Yoshlar o‘rtasida reproduktiv tana a‘zolari kasalliklari tarqalganligining tarkibiy jihatidan tahlili o‘tkazilgan ko‘pgina tibbiy ko‘riklar va amaliy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra quyidagi 3 ta asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi va eng ko‘p tarqalgan guruh – reproduktiv tana a‘zolarining surunkali yallig‘lanishi bor guruh, ularning ulushi 27-30% ni tashkil etadi.

Ikkinchi guruh - reproduktiv tana a‘zolari faoliyatining disfunktsional buzulishlaridan iborat, ular asosan organizmning gormonal nomutanosibligi tufayli kelib chiqadi. Ularning ulushi reproduktiv tizim kasalliklari orasida 15-18% ni tashkil etadi.

Uchinchi guruhga – siydik-tanosil a‘zolarining yallig‘lanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklar kiritilib, ularning sabablari jinsiy yo‘l bilan yuqadigan so‘zak, gerpes, zaxm, xlamidoz va shu kabi kasalliklar kirib, ular 15-24 yoshlilar o‘rtasida 70% ni tashkil qilayotgani tashvishli holatdir. Bundan tashqari o‘smirlar orasida tarqalib ketayotgan tamaki chekish orqali organizmning surunkali zaharlanishi reproduktiv tana a‘zolari kasalliklarining kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, salomatligining zaiflashishiga olib keladi. Insonning reproduktiv salomatlik potentsiali uning reproduktiv salomatlik darajasini belgilovchi muhim biologik omillardan biri bo‘lib, turli odamlarda turlicha boshlang‘ich kattalikka ega va tabiat tomonidan ato etilgan, shuningdek irsiy omillar bilan ham shartlangan. Reprodukiv quvvat ikkinchi tomondan, organizmning asab tizimi holatiga, ichki sekretsia bezlari faoliyatiga immunologik himoyalanganligiga ham bog‘liqdir.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan quyidagi 12 ta reproduktiv salomatlik tamoyillari belgilangan:

- Xavfsiz xomiladorlik;
- Bexatar tug'ruqlar;
- Chilla davridagi malakali yordam;
- Istalmagan xomiladorlik va uning oldini olish;
- Tug'ruqlar oralig'ini 3 yil va undan ortiq muddatga saqlash
- Zamonaviy kontraseptiv vositalar haqida aholiga keng ma'lumot berish;
- Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni oldini olish, tashxislash va davolash;
- Bepushtlikni oldini olish;
- O'sma kasalliklari va o'sma oldi kasalliklarini oldini olish;
- Ona suti bilan boqish targ'iboti;
- Onalik va bolalikni muxofazasi;
- O'smirlar reproduktiv salomatligi va jinsiy tarbiyasi;

**Reproduktiv huquq** bu- barcha er-xotin juftliklar va aloxida shaxslarning bolalar soni va ular orasidagi oraliq va ular orasidagioraliq, ularning tug'ulish vaqti haqida erkin hamda to'liq ma'suliyat xisi bilan qaror qabul qilishi va buning uchun shart bo'lgan ma'lumot va vositalarga ega bo'lish borasidagi asosiy huquqlarini bilishini anglatadi. Reprodukativ so'zi lotincha so'z bo'lib, re-, „tiklanish” takrorlanish, „producto” –yarataman ma'nosini anglatadi. Reproduktsiya biologiyada organizmning o'ziga o'xshash organizmlarni yaratishi, ko'payishi ma'nosini bildiradi. Reprodukativ salomatlik ya'ni ayolning qachon va qanday sharoitlarda ona bo'lishini nazorat qilish, onaning va undan tug'ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoit yaratish degani. Reprodukativ salomatlik masalasi faqat oilada tug'ilajak bolalar sonini cheklashgina emas balki, u ichiga kengroq masalalarni qamrab oladi. Bunga asosiy e'tibor oilalar farovonligini ta'minlash, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarning tom ma'noda mustahkamligini ta'minlash kabilar nazarda tutiladi.

**Tahlil va xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: Tadqiqot natijalariga ko'ra 200 nafar reproduktiv yoshdagi 15-45 yoshlar orasida o'tkazilgan anketa so'rovnoma ko'ra 15-19 yoshdagi qizlar va ayollarimiz 22% “Reprodukativ salomatlik” haqida tushunchaga ega, 30-36 yosh oralig'idagi ishtirokchilarimizning reproduktiv savodxonligi 68% tashkil qildi. Patronaj hamshiralar asosiy e'tiborni homilador ayollar, chilla davridagi va 1 yoshgacha farzandi bor ayollarga qaratib 15-19 yoshdagi qizlar bilan kamroq faoliyat olib bormoqda natijada qizlarda dismenoreya, amenoreya holati 70 nafar qizlarning 60% (42 nafarida ) kuzatilgan. So'rovnoma natijasiga ko'ra: reproduktiv salomatlikning buzilishiga olib keluvchi

sabablar, 30% ruhiy emotsional toliqish, 21% vaqtida tibbiy ko‘riklarga bormaslik, 20% abort, 15% ovqatlanish rejimining buzilishi natijasida kelib chiqishi aniqlandi. Tadqiqot davomida reproduktiv tizim kasalliklari 9% bachadon bo‘yni eroziyasi, 13% bachadon miomasi, 10% tuxumdon kistasi, 9% bachadon bo‘yni eroziyasi bilan xastalangan bemorlar borligi aniqlandi. Patronaj hamshiralari aholiga sog‘lom turmush tarzi, vaqtida tibbiy ko‘riklarga borish, homiladorlik va undan saqlanishning xavfsiz usullari, abortning asoratlari, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish haqida targ‘ibot ishlarini ko‘proq olib borishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X va boshqalar, Demografiya darslik. –T: “Fan va texnologiya” 2014.368-b.
2. Arziqulov R.U. Sog‘lom turmush tarzi asoslari.
3. “Akusherlik” darslik Djabborova Y.Q, Ayupova F.M.
4. B.Mamatqulov“ Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish “o‘quv darslik
5. Irgashev Sh.B. Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent 2008.